

**Abdimominov Bahadir Odinaevich**  
**Doctor of Philosophy, PhD.**  
**Termiz State University**  
**Head of the Department of Geography**  
**Termiz, Uzbekistan**  
**Barotova Sevara Bakhtiyarovna**  
**Termiz State University**  
**Geography education**  
**1st year graduate student**

**TERMEZ DISTRICT OF HISTORIC-CULTURAL MONUMENTS USE  
FOR TOURISM PURPOSES**

**ANNOTATSIYA:** This article on the importance of tourism around the world, including the role of tourism in Uzbekistan, the country's tourism in the development of a wide range of works, objects and thoughts about our country's rich historical and cultural heritage of comments and quotes. Old Termez and Termez in the territory and in some of the available archaeological, architectural and monumental objects, discusses the opportunities and prospects for tourism in the world.

**KEY WORDS:** Tourism, historical and cultural heritage, monument, pilgrimage tourism, archaeological tourism

**Abdimominov Bahodir Odinaevich**  
**Geografiya fanlari bo'yicha**  
**falsafa doktori, PhD.**  
**Termiz davlat universiteti**  
**Geografiya kafedrasini mudiri**  
**Termiz, O'zbekiston**  
**Barotova Sevara Baxtiyor qizi**  
**Termiz davlat universiteti**  
**Geografiya ta'lim yo'nalishi**

## TERMIZ TUMANIDAGI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARDAN TURIZM MAQSADLARIDA FOYDALANISH

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Turizmning dunyo bo'yicha ahamiyati, shu jumladan O'zbekistonning turizmdagi o'рни, mamlakatimizning turizmni rivojlantirish borasidagi keng ko'lamli ishlari, yurtimizning boy tarixiy-madaniy meros obyektlari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Termiz va eski Termiz hududidagidagi mavjud ba'zi arxeologik, arxitektura hamda monumental obyektlar turizmdagi imkoniyatlari va istiqbollari ko'rib chiqilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** Turizm, tarixiy-madaniy meros, monument, ziyorat turizmi, arxeologik turizm,

**KIRISH:** Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2015 yilda dunyo bo'yicha 1 milliard 184 million sayyoh qayd etilgan bo'lsa, 2016 yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatkich 1 milliard 235 millionga ya'ni, 3.9 foizga oshgan. Sayohatchilarga ko'rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2015 yilda qariyb 1,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2016–2017 yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko'rish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan.

Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YUNESKONing madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?

Raqamlarda mamlakatimizga 1 million 800 ming nafar sayyoh tashrif buyurgani qayd etilgan. Agar mamlakatimizda asosiy sayyohlik mavsumi mart oyining o'rtalarida boshlansa va dastlabki mavsum yakuni iyun oyi so'ngiga qadar bo'lsa, shu davr mobaynida shuncha sayyoh kelib ketishini tasavvur qilish qiyin.

Qolaversa, bizda mehmonxonalar yetarli emas, bori ham Yevropa mamlakatlarning mehmonxonalari narxi bilan deyarli teng va har yili narx sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu borada yana Parijga «murojaat» qiladigan bo'lsak, u yerda shahar va uning atrofidagi hududlardagi mehmonxonalar soni 4.260 tani tashkil etar ekan. Bizda esa bu ko'rsatkich respublika miqyosida 4 yarim barobarga past, ya'ni, yurtimiz bo'yicha atigi 750 ta mehmonxona mavjud.

Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.

## Termiz shahar va tuman tarixiy yodgorliklari

**arxeologik**

**arxitektura**

**monument**



1. Nomsiztepa
2. Fayoztepa
3. Zurmala
4. Ayritom
5. Kampirtepa
6. Qirqqiz
7. Qoratepa



1. Hakim at-Termiziy
2. Sulton-Saodat
3. Kokildor
4. Murchbobo
5. Zul Kifl
6. Avliyo Aleksandr Nevskiy cherkovi

1. Alisher Navoiy
2. Motamsaro ona haykali
3. Alpomish

**ASOSIY QISM:** Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak biz o'rganayotgan Surxondaryo viloyati Termiz shaxri va eski Termiz hududlaridagi tarixiy-madaniy ob'ektlarda ham turizmni rivojlantirish istiqbollari mavjud bo'lib ulardan ayrimlariga qisqacha izox berib o'tamiz.

**Nomsiztepa** – O'zbekistondagi madaniy meros obyekti. Surxondaryo viloyatining Termiz tumanida "Namuna" mahallasida joylashgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy Madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatiga kiritilgan, davlat muhofazasiga olingan.

**Fayoztepa** – Termiz shahri yaqinidagi Eski Termiz xarobalarining shimoli-g'arbida, Qoratepadan 1 km shimoli-sharqda Termiz tumanining Muhammad Hakim Termiziy mahallasida joylashgan. Yodgorlik 1968-76 yillarda arxeolog L.I. Albaum tomonidan o'rganildi. Fayoztepa 3 qismdan iborat, ya'ni markaziy

qismida ibodatxona, uning shimoli-g'arbida monastir, janubi-sharqida esa xo'jalik qurilish inshootlari joylashgan. Umumiy maydoni 1,5 ming kv km ga yaqin.

**Zurmala** minorasi – Termizdagi me'moriy yodgorlik. Mil.avv.II asrga oid Kushonlar davridagi budda inshooti hisoblanadi. A.Strelkov uni “stupa” deb hisoblagan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Zurmala minorasi xarobasining balandligi 14.5 m gacha bo'lgan. Asosan tog'ri to'rtburchak tarxli silindrsimon minora shaklida xom g'ishtdan qurilgan, teppasiga qubba – gumbaz ishlangan, oqish ohaktosh bilan qoplangan, asosida bo'rtma gorelef haykallar bo'lgan. Toshtaxtalar bilan taroshlangan bo'lak parchalari ko'plab topilishi Zurmala minorasini tashqaridan ham tosh bilan qoplangan deb taxmin qilinadi.

**Ayritom** - o'zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyatidan guvohlik beruvchi ko'xna shahar xarobasi. Termiz tumanida, Amudaryo qirg'og'ida joylashgan. Uning maydoni 90 gektarni tashkil etadi. Ayritomda budda havoncha (stupalari) topilgan.

**Kampirtepa** – qadimgi shahar xarobasi (mil.av.III mil.III-a) Amudaryoning o'ng sohilidagi Termiz shahridan 30 km uzoqlikda, Surxondaryo viloyatidagi Sho'rob qishlog'idan 0,5 km g'arbda joylashgan. Kampirtepa 2 qism; qal'a va undan g'arb va sharq tomonda joylashgan, atrofi devor bilan o'ralmagan qismdan iborat.

**Zul Kifl** – maqbarasi Amudaryo bo'yidagi Payg'ambar oroli – Orol Payg'ambar qo'riqxonasi hududida joylashgan. Payg'ambar Zul Kifl ayni shu yerda dafn etilganligi sababli ham orol Payg'ambar oroli deb nomlana boshlangan. Maqbaraning ayni qurilgan yillari mavjud emas, lekin binolar XI-XII asrlarga tegishli bo'lib, Mahmud G'aznaviy davrida bunyod etilgan.

**Qirqqiz qal'asi** – milodiy IX-XI asrlarga oid bo'lib, Termiz tumani hududida joylashgan. Nima maqsadda qurilganligi haqida ma'lumot yo'q. O'rta asrlarda Termiz shahrining tashqarisida joylashganligi qal'a shahar tashqarisidagi qo'rg'on vazifasini o'taganligini ko'rsatadi. Qal'aning o'ziga xosligi shundaki, u dunyo tomonlariga qat'iy mutanosib holda bunyod etilgan.

**Qoratepa** – Budda g'ori ibodatxonalari majmuasi (milodiy I-II asrlar). Eski Termizning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. 1937-yilda M.E.Masson va E.G.Pchelina tekshirgan.1960-yillarda arxeolog B.Ya.Staviskiy qazish ishlari olib borgan.Obita 3 ta tabiiy do'nglikda qurilgan.Umumiy maydoni 8 gektardan ziyod.

**Al-Hakim at- Termiziy maqbarasi** – Termizdagi me'moriy yodgorlik. IX-XV asrlarga oid.Bu maqbara asrlar davomida qayta qurilgan. Masjid,maqbara,xonaqoh,qorixona kabi binolardan iborat.Majmua Abu Abdullo Muhammad Hakim Termiziy nomi bilan bog'langan. Maqbara 1955-57 yillarda ilmiy o'rganilib XIV-XV asrlardagi ko'rinishi qayta tiklandi.1980-81 yillar va 2001-2002 yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozi.1980-81 yillar va 2001-2002 yillarda maqbara va xonaqoh qayta pardozi.Majmuaning umumiy tarhi 28,0x29,0 m, maqbara5,10x4,70 m

**Sulton Saodat majmui** – X-XI-XVII asrlarga oid. O'zbekiston me'morchiligi uchun noyob reja kenglik kompozitsiyasini beradi. Bu Termiz sayyidlarining oilaviy daxmasi bo'lgan. Uning ilk negizi ikki tanobiy ustundan qurilgan bir qat gumbazli maqbara bo'lib, hovlining g'arbiy qismiga kelib tutashadi.Majmua 20 ga yaqin maqbarani o'z ichiga olgan.

**Kokildor xonaqohi** – Termiz tumanidagi Namuna qishlog'idagi me'moriy yodgorlik.Maqbara XII asrga oid. Xalq orasida Aloulmulk Xudovandzoda (Termiz hukmdori) ko'shki, "Azizon", "Azlar eshon", "Kokildor" (kokil qirqish udumi) deb nomlangan.

**Murchbobo masjidi** – 1930 yillarda Termiz shahrida yashab o'tgan Imom Aliboy boshchiligida xalq tomonidan hashar yo'li bilan barpo qilingan. Mazkur masjid nomlanishi yon atrofidan o'sib chiqqan murch giyohi bilan bog'liq bo'lib, ushbu masjidga "Murch bobo" deb nomlangan va shu nom bilan atalishiga sababchi bo'lgan zot Sayyid Abdulvali Samarqandiy al-Mulakkab murch bobodir.

**Alisher Navoiy haykali** – O'zbekistondagi madaniy meros obyekti.Monumental san'at yodgorligi. Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida joylashgan. O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktabrda Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yhatiga kiritilgan.

**Motamsaro ona haykali** – Termiz shahrida joylashgan. Bu maydonni barpo etish uchun 6 milliard 200 million so'm mablag' sarflandi. Maydoni 2 gektar. Maydonda zamonaviy arxitektura va me'morlik an'analarini mujassam etgan keng ayvon barpo etilib, alyuminiydan tayyorlangan maxsus kitoblar o'rnatildi. Ushbu kitoblarga Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan surxondaryoliklarning ism-familiyasi zarhal harflar bilan bitilgan.

**Alpomish monumental haykali** – Termiz shahridagi "San'at saroyi" maydonida joylashgan. Haykaltarosh Qurbon Norxo'rozov tomonidan yaratilgan ushbu san'at asarida "Alpomish" dostonidagi bosh qahramon Alpomishning Boychibor otini Bobotog' cho'qqisidan bulutlararo "uchirtirib" borayotgan obrazi tasvirlangan. Haykaltarosh ushbu monumentni yaratish uchun 1 yildan oshiqroq vaqt sarflagan.

**Avliyo Aleksandr Nevskiy cherkovi** – dastavval 1902-yilda Toshkentda joylashgan 1-Turkiston miltiqchilar brigadasi uchun qurilgan edi. 1910-yilgacha u avliyo Aleksiyning 9-Turkiston miltiqchilar polkiga tegishli bo'lib, shundan keyin u avliyo Aleksandr Nevskiy sharafiga shu nomni oldi. Ibadatxona pishgan g'ishtdan qurilgan, katta qo'ng'iroqli minorasi va ikonostasga ega bo'lgan. Bugungi kunda cherkovga ziyoratchilar va sayyohlar tashrif buyurishi mumkin.

### **XULOSA**

Xulosa urnida shuni aytish kerakki Termiz tarixiy va arxeologik obedalar eski Termiz hududiga to'g'ri keladi.

Ko'ngilochar hamda arxetiktura obektlari Termiz shahar hududiga to'g'ri keladi.

Arxeologik obe'ktlarning ko'p qismi qadimgi dinlardan biri xisoblangan buddaviylik diniga xizmat qilgan obektlar xisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR**

1. Turaev Kuvonchbek Tohirovich, "RELIGIOUS TOURIST FACILITIES OF HISTORICAL AND GEOGRAPHICAL STRUCTURE IN UZBEKISTAN ", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 3, p. 5, Apr. 2020.

2. Turaev K.T and Turayeva Z.M 2020. The Issue of Studying Religious Tourism in Uzbekistan. *International Journal on Integrated Education*. 3, 8 (Aug. 2020), 43-47. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v3i8.535>.



3. Umarova M. H, Esanov N. A, Kholmatov Z. M, and Turaev Q. T, "THE CLASSIFICATION OF THE NAMES OF POPULATION SETTLEMENTS IN SURKHANDARYA REGION BY THE HISTORICAL FACTORS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. SPECIAL ISSUE, p. 4, Dec. 2020

4. Esanov N. A, "SOME ISSUES RELATED TO THE FORMATION OF URBAN SETTLEMENTS IN UZBEKISTAN BEFORE INDEPENDENCE", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 9, p. 6, Jan. 2021.

5. Umarova M. H, Abdunazarov H. M, Kholmatov Z. M, and Turaev Q.T, "THE RECREATION IMPORTANCE OF NATURE MONUMENTS OF THE BAYSUN MOUNTAINS", *IEJRD - International Multidisciplinary Journal*, vol. 5, no. 9, p. 4, Dec. 2020.

6. Mamarasulovna, T. Z. . (2021). Some translation problems in visit tourism (on the example of Russian and English). *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 509-512. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/593>

7. Kholmatov Z.M, Abdumuminov O.R., Abdumuminov B.O., Bakhramov I.B NATIONAL MODEL OF ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 7 No. 12, 2019 ISSN 2056-5852

8. Umarova, M. H., & Turaev, Q. (2021). Names of Places Related to Religious Tourism and their Origin. *Middle European Scientific Bulletin*, 12, 371-373. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/566>

9. Umarova M.H, Erdanov M.N, Xolmatov Z.M, Turaev Q.T. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, Vol. 2 No. 4 (2021): AJSHR **Article Published** : Jun 19, 2021. <https://www.grnjournals.us/index.php/AJSHR/article/view/457/386>